

O'QUVCILARNING YOZMA NUTQI USTIDA ISHLASHDA QIZIQARLI O'YINLARDAN FOYDALANISH

Tilavova M-UrDU katta o`qituvchisi

Erkinova N-talaba

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarning yozma nutqini o'stirishda qiziqarli o'yinlardan foydalanishning yo'llari korsatib berilgan. Shuningdek, dars samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi bir qancha o'yinlardan foydalanilgan.

Аннотация: В данной статье показаны способы использования интересных игр для развития письменной речи учащихся. Также для повышения эффективности урока был использован ряд игр.

Abstract: This article shows ways to use interesting games to develop students' written speech. Also, a number of games were used to improve the effectiveness of the lesson.

Kalit so'zlar: intellertual, ta'lim-tarbiya, ma'naviy tarbiya, ijtimoiy faollik, didaktik o'yin

Ключевые слова: интеллектуал, воспитание, духовное воспитание, социальная активность, дидактическая игра.

Key words: intellectual, education, spiritual education, social activity, didactic game

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning “Yoshlarimiz mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi,baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va

imkoniyatlarini safarbar etamiz”, - degan soʻzlari taʼlim-tarbiya beruvchilar oldidagi yuksak vazifa boʻlib hisoblanadi¹.

Mamlakatimizda maʼnaviy tarbiya, barkamol inson tarbiyasi har doim diqqat-eʼtiborimizda boʻlib kelgan. Avlod-ajdodlarimiz oʻz farzandlarining kelajagi haqida qaygʻurib kelgan. Yoshlar siyosati bugun davlat siyosati darajasiga koʻtarilgan. Birinchi Prezidentimiz aytganlaridek, “Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam boʻlmasligi, farzandlarimizning bizdan koʻra kuchli, bilimli, dono va, albatta, baxtli boʻlib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada maʼnaviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi.”² Zero, barkamol avlod kelajak poydevori ekanligi hammaga maʼlum. Chunki shaxs kelajak rivojiga keskin taʼsir eta oladi.

Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha 2017-2021-yillarga moʻljallangan “Harakatlar strategiyasi”ning 4-yoʻnalishi “Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlari boʻlib, unda ”Jismonan sogʻlom, ruhan va aqlan rivojlangan mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qatʼiy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish”koʻzda tutilgan.³

Ona tili dasturida “Takrorlash boʻlimi mavjud boʻlib, 3-sinfda yil davomida oʻtilganlarni takrorlash, bogʻlanishli nutqni oʻstirish boʻlimi mavzusiga 29 soat berilgan.”Takrorlash” boʻlimida ” Soʻz va gap”, “ Matn va uning tuzilishi”, “ Matn va gap. Soʻz yasovchi qoʻshimchalar”,” Ot soʻz turkumi “,”Sifat soʻz turkumi”,” Son soʻz turkumi”,” Feʼl soʻz turkumi”,” Gap va soʻz”,”Matn ustida ishlash “, “Gap boʻlaklari”, “Matn. Gap. Gap boʻlaklari” mavzulari dalanib, oʻquvchilarning ogʻzaki va yozma nutqi oʻstiriladi.Quyida bir qancha grammatik oʻyinlarni keltirib oʻtamiz.

¹Mirziyoyev Sh.M.Erkin va farovon demokratik Oʻzbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.- Toshkent.Oʻzbekiston.2016.14-bet.

² Karimov I.A. Yuksak maʼnaviyat - yengilmas kuch.- Toshkent: “Maʼnaviyat”, 2008, 4-bet.

³ Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida.Toshkent.”Adolat”2018.26-bet.

Xotira mashqi.

Boshlang'ich sinflarda yozuvda so'zning oxiridagi yoki o'rtasidagi harfni tashlab ketish hollari tez-tez uchraydi. Bu ko'plab o'qituvchilarni o'ylantiradigan muammo. Jumladan, har bir sinfni qabul qilib olganda o'quvchilardagi shu kamchilikni bartaraf etish maqsadida turli usullardan foydalanishadi. Shunday o'quvchilar borki, yozuvlari, harf unsurlarini yozishi talab darajasida bo'lsa-da, lekin harfni tashlab ketadi. Ulardagi muammoni bartaraf etish uchun, avvalo, kitob bilan ishlashga, ko'chiruv diktanti, mustaqil o'qish mashqlarini o'tkazishga e'tibor qaratish lozim. "Xotira mashqi" bu muammoni bartaraf etishda samarali usullardan biri.. Bunda o'quvchilarga 3-5 ta so'z yozilgan plakat ko'rsatiladi. 2 daqiqadan so'ng so'zlarning usti yopiladi. O'quvchi o'ylab, xotirlab, boyagi plakatdagi so'zlarni daftoriga yozishi kerak. So'ng hamma o'quvchi yozib bo'lgach, plakatning usti ochiladi va bolalar unga qarab daftardagi so'zlarni tekshirishadilar. Bu o'quvchilarni diqqat-e'tiborli bo'lishga, harflarni tashlab ketmasdan xatosiz yozishga o'rgatadi. Sinfda buning uchun o'quvchilar alohida daftar tutishlari lozim.

Yil boshidanoq "Xotira mashqi" ni o'tkazib, o'quvchilardagi o'zgarishni kuzatib borish kerak. Sezilarli o'zgarishga erishgan o'quvchini rag'batlantirish lozim. Bundan tashqari "Yoddan yozish" mashqi ham samarali hisoblanadi. O'quvchilar buni qiziqish bilan bajarishadi va she'rnini yodlaganda ham tinish belgilariga e'tiborli bo'lishadi. Natijada o'quvchilar o'z xatosini o'zi tushunib, keyinchalik uni takrorlamaslikka harakat qilishadi. Shuning uchun "Yoddan yozish" mashqida xatolarni tekshirish jarayonida o'quvchilarning o'zi amalga oshirsa, yaxshi natija beradi. Kitobdan ko'chirish paytida ham o'sha xatoni takrorlamaslikka harakat qiladi. Bu mashqlarni o'tkazishga ko'p emas, darsning 5 daqiqasi yetarli bo'ladi.

"Bu meniki"

1-sinfdan boshlab o'quvchilarni so'zlarni tahlil qilishga o'rgatib borish lozim, ya'ni analiz va sintez metodini bolalar yaxshi tushunishlari kerak. So'zlarni o'qiganda nechta tovush, nechta harf borligini turli o'yinlar orqali o'quvchilarga

uqtirib borishga harakat qilaman. Buning uchun “Bu meniki” o‘yinidan samarali foydalaniladi. Bunda o‘qituvchi 1-guruhga 2 bo‘ginliva 5 ta harfdan iborat so‘zlarni aniqlashlarini topshirsa, 2-guruhga 3 bo‘ginli 6 ta harfdan iborat so‘zlarni topishni aytadi. O‘qituvchi goh 3 bo‘g‘inli, goh 2 bo‘g‘inli so‘zlarni aralashtirib aytadi. O‘quvchilar o‘zlariga tegishli bo‘g‘inli so‘zlarni daftarlariga yozib borishadi. O‘yin oxirida qaysi guruhda ko‘p xatolar aniqlansa, o‘sha guruh mag‘lub hisoblanadi. Bundan tashqari, harf tashlab yozish muammosini bartaraf etish uchun so‘zlarni to‘g‘ri o‘qishga o‘rgatish kerak. Diktant yozganda o‘quvchining so‘zlarni ichida takrorlab, shoshilmay yozishga undash lozim.

“Noto‘g‘ri jumla”

Bu o‘yin suratlar asosida o‘tkaziladi. O‘quvchini suratni tasvirlab berishi asnosida suratlariga tegishli bo‘lmagan jummalarni ham ishlatadi. O‘quvchilar ziyoraklik bilan shu jummalarni topishlari lozim. O‘quvchilardan bu o‘yin davomida ziyoraklik, sinchkovlik, kuzatuvchanlik va diqqat talab qilinadi. Ular suratni sinchkovlik bilan kuzatib turib, o‘qituvchining hikoyasini ham diqqat bilan tinglab turadilar. Har bir noto‘g‘ri jummalarni topa bilish ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini va darsga qiziqishini orttiradi. Bu o‘yindan faqat ona tili darslariga emas, darsdan tashqari mashg‘ulotlarga ham foydalanish mumkin.

Demak, boshlang‘ich sinflarda imloga oid darslarning ahamiyati katta.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qosimova K va b. Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent. “Noshir” 2009-y.

2. Ona tili va o‘qish savodxonligi. Toshkent-2021